

KUL TEGIN VA TO'NYUQUQ BITIKTOSHLARDAGI FE'L YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

Asadullayeva Diyora Anvar qizi

SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

3-bosqich talabasi

MAQOLA MALUMOTI	ANNOTATSIYA:
MAQOLA TARIXI:	<i>Ushbu maqolada qadimgi turkiy tilda fe'l yasovchi qo'shimchalarning shakl va ma'no xususiyatlari, ularning qo'llanish doirasi hamda tarixiy til taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. "Urxun-Enasoy bitiktoshlari", "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" kabi yozma manbalar asosida -a/-ä, -la/-lä, -ra/-rä, -sa/-sä, -kar/-ker kabi affikslarning funksional vazifasi izohlangan. Shuningdek, qadimgi turkiy til va hozirgi o'zbek tilida fe'l yasalish tizimi o'rtasidagi uzviylik va davomiylik ilmiy manbalar asosida ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida fe'l yasovchi qo'shimchalar tilning leksik-semantik boyishida muhim omil bo'lgani aniqlanadi.</i>
Received:10.11.2025	
Revised: 11.11.2025	
Accepted:12.11.2025	
KALIT SO'ZLAR:	
<i>qadimgi turkiy til, fe'l yasovchi qo'shimcha, -la/-lä, -sa/-sä, "Kul tegin", "Qutadg'u bilig", so'z yasalishi, tarixiy grammatik tizim.</i>	

Kirish

Qadimgi turkiy til - turkiy tillarning shakllanish va taraqqiy etish bosqichida muhim o'rin tutgan til tizimidir. Ushbu davr til materiallari, ayniqsa, "Urxun-Enasoy bitiktoshlari", "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq" kabi yodgorliklarda o'zining boy fonetik, leksik va grammatik ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Qadimgi turkiy tilda fe'l yasovchi qo'shimchalar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat grammatik ma'no, balki semantik nozikliklar hamni ifodalashga xizmat qilgan.

Tilning rivojlanish jarayonida fe'l yasovchi affikslar orqali harakat, holat, tovush, kechinma va jarayon kabi tushunchalar ifodalanib, so'zlovchining o'sha davr dunyoqarashi hamda madaniy qadriyatlari til birliklari orqali namoyon bo'lgan. Ayniqsa, turkiy tillarda

soʻz yasallishining agglutinatlv xususiyati tufayli feʻl yasovchi qoʻshimchalarning vazifasi yanada kengaydi, ular yordamida yangi feʻllar yasallib, tilning soʻz boyligi ortib borgan.

Shu jihatdan, qadimgi turkiy tildagi feʻl yasovchi qoʻshimchalarni oʻrganish nafaqat tarixiy tilshunoslik uchun, balki bugungi oʻzbek tili grammatik meʼyorlarining ildizlarini anglash uchun ham muhimdir. Mazkur tadqiqotda qadimgi turkiy tilda uchraydigan feʻl yasovchi qoʻshimchalarning shakl va maʼno xususiyatlari, ularning qoʻllanish doirasi hamda dastlabki manbalardagi namoyon boʻlishi tahlil qilinadi.

Feʻl yasovchi qoʻshimchalar haqida qadimgi turkiy til va hozirgi oʻzbek tilida bir qancha tadqiqotlar oʻrganilib, hali ham davom etmoqda. A. Hojiyevning «Hozirgi oʻzbek tilida feʻlning mayl turlari» haqidagi maqolasida 1865- yilda N. I. Ilʼmivskiyning «Bobirnom» tilidagi -r, -gʻay, -gʻu va boshqa ayrim feʻl formalarning tahliliga bagʻishlangan ishi eʻlon qilingan edi. Lekin Ya. Shinkevichning «Qisasi Rabgʻuziy» tiliga bagʻishlangan asari eʻlon qilingungacha oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi boʻyicha bu xildagi ishlar yuzaga kelmadi. A. Gʻ. Gʻulomov «Feʻl» [Toshkent, 1954.]

V. M. Nasilovning «Grammatika uygurskogo yazyka» kitobida -mysh affiksining uygʻur va boshqa ayrim turkiy tillarda «xabar», «darak», «dovruq», «ovoza» kabi maʼnolarda qoʻllanuvchi mish-mish soʻzi. V. V. Reshe-tov va A. A. Koklyanovalar «Hozirgi oʻzbek tilidagi oʻtgan zamon feʻlining oltita formasi»ni koʻrsatadilar. Kul tegin bitigida: Üzä kök täñri, asra yağiz yär qilintuqda ikin ara kisi oğlı qilinmiş. Kisi oğlinta üzä äcüm apam Bumün qağan, İstämi qağan olurmış. Olurupan türük bodunuñ älin tör[ü]sin tuta birmis, iti birmis. Tört buluñ qop yağı ärmis sü süläpän tört buluñdağı bodunuğ qop almıs, qop baz qılms, başlığığ yükütürmis, tizligig sökürmis. Ilgärü Qadırqan yısqa tägi, kirü Tämır qapığqa tägi qonturmış.

Toʻnyuquq bitigida: Bilgä Tonyuquq bin özüm Tabğaç älinä qilintim. Türk bodun Tabğaçqa körür ärti. Türk bodun qanin bulmayin tabğaçda adrilti, qanlantı, qanin qodup tabğaçqa yana içikdi. Täñri anča tämis ärinç: Qan bärtim, qanin qodup içikdiñ, içikdük üçün täñri öl tämis ärinç, türk bodun ölti, alqintı, yoq boltı, türk sir bodun.

Asosiy qism

Qadimgi turkiy tilda feʻl oʻzining leksik-semantik xususiyatlariga ega. Feʻllar zamon va makondagi ish-harakatni, shuningdek, predmet va hodisalar jarayonini ifodalaydi. Grammatikada ish-harakat, narsa va hodisalardagi jarayon tushunchalari juda keng. [2;77]. Qadimgi turkiy tilda feʻllar quyidagi qoʻshimchalar bilan yasallishni hosil qilgan:

-a, -ä/-i, -i/-u, -ü affiksi.

yaşa-yasha-, ötä -nasihat qil, bayu-boyla.

-la,-lä affiksi.Ko'k turk bitiklarida:qilīčla-qilichdan o'tkaz, sülā-lashkar tort.qırqız tapa sülādimiz.[Kul tigin].

Otlaridan fe'l yasash. Qadimgi turkiy tilda -la, -lä, -ad, -äd, -ra, -rä, -qar, -kär, -a, -ä, -sa, -sä, -sın, -sin, -iq, -ik kabi affikslar otdan fe'l yasashda aktiv bo'lgan:Yaği bolup itiinü, yaratunu umaduy yana içikmis.[Kul tigin].

-la, -lä, -a, -ä affikslari bilan yasalgan fe'llar ish-harakatning anglashilgan predmet vositasida bajarilishi, shu predmetga ega bo'lishi yoxud biror belgi yoki holatga o'xshashlik ma'nolarini ifodalaydi. Aq tärmał kăčä oğraqlatdim, at üzä bintürä qarīg sökdım, yoqaru at yätä yadağın, iğaç tutunu ağırtım, öñräki är.[Kul tigin].

Masalan: bash (bosh) → bashqar,öt (o'tmoq) → ötgärür, kön (ko'ngil) → könk,yol (yo'l) → yolıq,taş (tash) → taşıq,mağ (mag'iz, mazmun) → mağıq,pol → poliğ,uluğ → uluğsın.[2;82].

Qañım qağan yäti yig[ir]mi ärin taşıqmıs.T[aşr]a yoriyur tiyin ku äsidip balıqdaqı taşıqmıs,tağdaqı inmis.Tirilip yätmıs är bolmıs.Täñri küç birtük üçün qañım qağan süsi böri-täg ärmıs, yağısı qon-täg ärmıs.Ilgärü, qurığaru süläp ti[r]mis, qoburt[mıs]

-iq,-ik affiksi. Kul tigin bitigida:taşıq-sirtga, tashga chiq -, içikdi -ichga kirdi .Qañım qağan yäti yig[ir]mi ärin taşıqmıs.

Ilgärü, qurığaru süläp ti[r]mis,qoburt[mıs] -la, qadimgi turkiy tildagi fe'l yasovchi qo'shimcha.

Ilgärü, qurığaru süläp ti[r]mis, qoburt[mıs] -r, affiksi fe'l yasayapti.[3;171].

Artuq qırqız küclüg qağan yağımız boltı.Ol üç qağan ögläşip Altun yış üzä qabasalım timis, anča ögläşmis, öñrä türk qağanğaru sülälim, timis, anaru sülämäsär, qačan äñirsär, ol bizni qağanı alp ärmıs, ayğučısı bilgä ärmıs, qačan äñirsär, ölürtäci kük.Üçägün qabsap, sülälim, ani yoq qısalım, tämıs.Kül tigin Azman aqığ binip tägdi, sančdı, süsin sančdımız, ilin altımız.Türük bodun adaq qamşatdı, yablaq bol[ta]čı ärti.

Artuq qırqız küclüg qağan yağımız boltı.Ol üç qağan ögläşip.Ögläşip- fikrlashib, To'nyuquq bitigida:-lä fe'l yasovchi bo'lib kelgan.

Altun yış üzä qabasalım timis,anča ögläşmis To'nyuquq bitigida: Qabasalım-bostirib boraylik öñrä türk qağanğaru sülälim, timis, anaru sülämäsär.Sülälim-lashkar tortaylik [Tuo'nyuquq bitigi] qačan äñirsär,ol bizni qağanı alp ärmıs,ayğučısı bilgä ärmıs,qačan äñirsär,ölürtäci kük.añirsär-g'azablansa,--sä,-sa affiksi Kul tegin bitigida fe'l yasovchi bo'lib kelgan.

A.Hojiyevning “O‘zbek tili so‘z yasalihi tizimi”da fe‘l yasovchi qo‘shimchalardan eng faollaridan biri.O‘zbek adabiy tilida -la va uning ishtirokida yuzaga kelgan -lan, -lash; -lantir, -lashtir affiksarlari mahsulli, sermahsul affikslar bo‘lib, fe‘l yasalihiining asosiy tiplarini ular yordamida yasalgan (yasalayotgan) fe‘llar tashkil etadi.

Qadimgi turkiy tilda esa, fe‘l yasovchi qo‘shimchalardan -lä affiksining faqat shu varianti ucharashini kuzatamiz.

-lash. Bu affiks fe‘l yasovchi -la va birgalik nisbat shaklini yasovchi -sh affiksining birikuvidan hosil bo‘lgan. -lash affiksi, asosan, otlardan, sanoqli darajada boshqa turkumga oid so‘zlardan fe‘l yasaydi.Qadimgi turkiy tilda esa bunday ko‘rinishi mavjud emas.

Xulosa

Qadimgi turkiy tilda fe‘l yasovchi qo‘shimchalar turkiy tilning morfologik tizimida yetakchi o‘rin egallagan. Ular yordamida ot, sifat va ba‘zan ravish negizlaridan turli ma‘no ottenkalariga ega bo‘lgan fe‘llar yasalgan. Eng faol affikslarga -a/-ä, -la/-lä, -ra/-rä, -kar/-ker, -sa/-sä, -t/-d kabi shakllar kirgan. Bu qo‘shimchalar faqat grammatik vazifani emas, balki semantik yukni ham o‘zida mujassam etgan: ish-harakatning yuzaga kelishi, davomiyligi, orttirma yoki majhul nisbat ma‘nolari ular orqali ifodalangan.

Qadimgi bitiklar (Bilga qagan, Kultegin, Tonyuquq), shuningdek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiy “Hibbat ul-haqoyiq” kabi manbalarda fe‘l yasovchi qo‘shimchalarning qo‘llanishi tilning tabiiy taraqqiyoti va uning badiiy nutqda faol bo‘lganini ko‘rsatadi. Ushbu affikslar keyinchalik o‘zbek adabiy tilida ham davomiy va mahsuldor bo‘lib, hozirgi zamon fe‘l yasalihi tizimini shakllantirishda asosiy manba bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi turkiy tilda fe‘l yasovchi qo‘shimchalar tilning taraqqiyotida markaziy rol o‘ynagan, ular yordamida harakat ma‘nolarining rang-barangligi yaratilgan va bu holat o‘zbek tilining hozirgi grammatik tizimiga ham bevosita asos bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл замонлари тараққиёти. -Тошкент: Фан, 1976. - Б 158
2. Абдурахмонов Н. Қадимги туркий тил. -Тошкент: Ўқитувчи, 1989. -Б 161

3. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek til tarixi. -Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. -B 223
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. - Тошкент: О'qituvchi, 2007. -Б 168
5. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Тошкент: Ўқитувчи, 1982. -Б 164

